
SAIDA ZUNUNOVA LIRIKASIDA ONA TIMSOLI TALQINI

Sitorabonu Jo‘rayeva

ToshDO‘TAU o‘zbek tili va adabiyoti

yo‘nalishi magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Saida Zununova she‘riyatida Ona obrazining badiiy talqini va poetik xususiyatlari tahlil qilingan. Shoirira ijodida ona siymosi nafaqat shaxsiy tuyg‘ular, balki umuminsoniy, axloqiy va falsafiy g‘oyalarni mujassam etuvchi markaziy badiiy timsol sifatida yoritiladi. Tahlil jarayonida shoiraning “Nahotki, siz yo‘qsiz endi, onajon...” hamda “Onangni sevgin deb o‘rgatmoq g‘alat” she‘rlari misolida metafora, epitet, tashbeh, ramz va kontrast kabi badiiy tasvir vositalarining qo‘llanishi ochib beriladi. Shuningdek, lirik qahramonning ruhiy kechinmalari, ona sog‘inchi, farzandlik burchi, aybdorlik hissi hamda ona mehrining ma‘naviy meros sifatidagi talqini ilmiy-estetik jihatdan asoslanadi. Tadqiqot natijasida Saida Zununova she‘riyatida Ona obrazi milliy qadriyatlar, ma‘naviy poklik va insonparvarlik g‘oyalarini ifodalovchi yuksak poetik timsol ekanligi xulosalanadi.

Kalit so‘zlar:Saida Zununova, Ona obrazi, o‘zbek she‘riyati, poetik tahlil, badiiy obraz, metafora, ramz, lirik qahramon, ona mehri, ma‘naviy qadriyatlar, badiiy tasvir vositalari, zamonaviy o‘zbek adabiyoti.

Ona siymosi o‘zbek adabiyotida qadimdan eng muqaddas va e‘zozli badiiy timsollardan biri sifatida qaralib kelgan. Xalq og‘zaki ijodidan tortib mumtoz va zamonaviy adabiyotgacha bo‘lgan jarayonda Ona obrazi insoniy fazilatlarning mujassami, hayot manbai va ma‘naviy tayanch sifatida tasvirlanadi. Ayniqsa, zamonaviy o‘zbek ayol shoiralari ijodida Ona mavzusi alohida poetik mazmun kasb etib, ayol qalbining ichki kechinmalari bilan uyg‘unlashgan holda ifodalanadi.

Saida Zununova she‘riyatida ona siymosi shoiraning poetik tafakkuri va axloqiy pozitsiyasini ifodalovchi markaziy obrazdir. Adabiyotshunos Dilmurod Qurunov qayd etganidek, “San’atning obraz vositasida fikrlashi uning spetsifik, ya’ni tur sifatida belgilovchi xususiyatidir. San’atkor badiiy obraz vositasida dunyoni anglaydi, o‘zi

anglagan mohiyatni va o‘zining anglanayotgan narsaga hissiy munosabatifodalaydi” [1;67]. Shoir she’riyatida Ona obrazi faqat shaxsiy tuyg‘ular bilan cheklanmay, balki umuminsoniy, axloqiy va falsafiy ma’nolar bilan boyitilgan. Uning she’rlarida Ona – hayot maktabi, sabr va shukr darsi, ruhiy poklanish manbai sifatida talqin qilinadi. Ijodkor ona siymosini yaratar ekan, uni kundalik hayot manzaralari, mehnat duo va sabr bilan uyg‘un holda gavdalantiradi. Bu holat shoir she’riyatining xalqona ruhini kuchaytiradi. Onaning mehnatkash qo‘llari, nigohi, duosi kabi detallarning poetik tasviri orqali ona siymosi ideallashtiriladi va muqaddaslik darajasiga ko‘tariladi.

Saida Zununova Ona obrazini yaratishda turli badiiy ifoda vositalaridan mohirona foydalanadi. Shoiraning she’riyatida epitet, metafora, tashbeh va ramzlar ona siymosining poetik jozibasini oshiradi. Shoiraning ushbu she’ri fikrimizning yaqqol isbotidir:

*Yana bahor keldi taptaqir, siydam,
Ranglarsiz, gullarsiz men uchun bugun.
Ajinlar chizig‘i ichida diydami,
Qalbmida o‘limning dastidan tugun.
Binafsha, lolalar shumshuk va g‘arib,
Dilga muzdek tegar, bermas hayajon.
Butun go‘zalliklar sizni axtarib,
Izingizdan ketdimi, deyman, onajon.
Suvlarning qo‘shig‘i siz bilan ketmish,
Bo‘mbo‘sh bo‘lib qolmish go‘yo Andijon.
Nahot, bular endi totli bir o‘tmish,
Nahotki, siz yo‘qsiz endi, onajon.
Hushyorman, der edim o‘zimni o‘zim,
Bugun yuragimda ming bitta armon.
Bu olamda neki ranjitmish sizni,
Bariga go‘yo bir men gunohkorman.
Siz aytgan allani aytib o‘turman,
Siz bergan yurakni mash‘ala qilib.*

*Qaydaki, gumrohlik bo'lsa tuturman,
Qo'yurman odamlar yo'liga ilib.
Yana yillar o'tar, bahorlar balqir,
Yana ko'zlarimda ranglanar gullar.
Qalbimni bitta o'y kemirar, yulqir,
Yo'q endi visolga eltguvchi yo'llar.
Nahotki, siz yo'qsiz endi, onajon... [3;123]*

She'ning boshlanishiga e'tibor qaratsak, bahor an'anaviy quvonch va yangilanish ramzi bo'lsa-da lirik qahramon uchun onasiz hayot bo'sh va rangsiz. Bu holat badiiy kontrast orqali lirik kechinmaning kuchayishiga xizmat qiladi. Zero badiiy tasvirda tashqi qarama-qarshilikning mavjud bo'lmasligi obrazning ichki estetik va ma'naviy mazmunini yanada chuqurroq ochishga xizmat qiladi [2;112,114].

*Binafsha, lolalar shumshuk va g'arib,
Dilga muzdek tegar, bermas hayajon.
Butun go'zalliklar sizni axtarib,
Izingizdan ketdimi, deyman, onajon.*

Bu to'rtlikda shoiraning iztirobi tabiat tasviri orqali kuchaytirilgan. "Dilga muzdek tegar" iborasi metaforik ibora bo'lib, ona yo'qligi sabab yuzaga kelgan ruhiy sovuqlik, go'yo mehr manbaining yo'qolganini anglatadi. Endi hech narsa shoira qalbida kuchli hayajon uyg'ota olmaydi...

*Suvlarning qo'shig'i siz bilan ketmish,
Bo'mbo'sh bo'lib qolmish go'yo Andijon.
Nahot, bular endi totli bir o'tmish,
Nahotki, siz yo'qsiz endi, onajon.*

Shoira nigohida onaizorining yo'qligi hayotning tabiiy go'zalligini ham sustlashtirgandek. Andijon go'zal xotiralar jamlangan muqaddas makon. Uning "Bo'm-bo'sht" bo'lib qolishi shoiraning ichki dunyosidagi bo'shliqning tashqi makonga ko'chirilgan ifodasi. Lirik qahramon voqeani aqlan qabul qilgan bo'lsa-da, ruhiy jihatdan hali tan ololmayotgan holatda tasvirlanadi. Shoira uchun ona bilan bog'liq lahzalar "totli bir o'tmish"ga aylangani og'ir haqiqat sifatida namoyon bo'ladi.

Hushyorman, der edim o'zimni o'zim,

Bugun yuragimda ming bitta armon.

Bu olamda neki ranjitmish sizni,

Bariga go‘yo bir men gunohkorman.

Bu bandda shoira o‘zining avvalgi ruhiy holati bilan hozirgi ahvolini qarama-qarshi qo‘yadi. “Hushyorman” degan e’tirof lirik qahramonning o‘zini mustahkam, hayot zarbalariga tayyor deb bilishini anglatadi. Ammo ikkinchi misrada bu ichki tayanchning yemirilgani ayon bo‘ladi: yurak “ming bitta armon” bilan to‘lgan. Bu yerda shoir yo‘qotish insonni eng ishonchli deb hisoblagan ruhiy holatidan ham chiqarib yuborishini ko‘rsatadi.

Keyingi baytda lirik qahramonning iztirobi yanada chuqurlashib, u aybdorlik hissiga aylanadi. Shoira butun olam onasini ranjitganlikda ayblayotgandek bo‘lsa-da, oxir-oqibat barcha aybni o‘z zimmasiga oladi. “Go‘yo bir men gunohkorman” degan jumla orqali shoir mantiqan bu fikrni inkor etayotgandek ko‘rinsa-da, aslida bu qalb iztirobining eng og‘ir shakli – o‘zini kechira olmaslik holatini bildiradi. Bu bandda farzandning ona oldidagi qarzдорlik hissi va kechikkan pushaymon badiiy tarzda ifodalanadi.

Siz aytgan allani aytib o‘turman,

Siz bergan yurakni mash‘ala qilib.

Qaydaki, gumrohlik bo‘lsa tuturman,

Qo‘yurman odamlar yo‘liga ilib.

Bu bandda iztirob asta-sekin ma’naviy merosni asrash tuyg‘usi bilan uyg‘unlashgan. Ona aytgan alla shunchaki bolalik xotirasi emas, balki ma’naviy madaddir. Lirik qahramon shu allani takrorlash orqali volidasining ruhini tirik saqlab qolishga urinadi. “Yurakni mash‘ala qilish” obrazi esa ona mehrining farzand hayotiga yo‘l ko‘rsatuvchi yorug‘likka aylanganini anglatadi. Demak, ona jismonan yo‘q, ammo uning bergan ma’naviy quvvati yashamoqda. “Gumrohlik” – adashish, ma’naviy yo‘qotish ramzi. Shoiraga onasidan meros bo‘lib qolgan muhabbat va to‘g‘rilikni endi boshqalarga ulashishni o‘ziga vazifa deb biladi.

Yana yillar o‘tar, bahorlar balqir,

Yana ko‘zlarimda ranglanar gullar.

Qalbimni bitta o‘y kemirar, yulqir,

Yo 'q endi visolga eltuvchi yo 'llar.

Shoira hayot davom etishini tan oladi: yillar o'tadi, bahorlar yana keladi. Demak, tashqi olam o'z go'zalligini qayta tiklaydi. Ammo bu quvonch shoira qalbiga tinchlik bermaydi. Ranglangan gullar tashqi tasalli, xolos. Ichki bo'shliq hali hamon to'lmagan. Bu band insonning yo'qotishlarga ko'nikishi, ammo unutilmasligi holatini ifodalaydi. Aslida qahramon uchun asosiy izzat yo'qotish emas, balki qaytmaslikdir. "Visolga eltuvchi yo'llar"ning yo'qligi ona bilan uchrashuvning imkonsizligini anglatadi.

Nahotki, siz yo 'qsiz endi, onajon...

Shoira asarni aynan savol shaklida yakunlashi bilan ona yo'qligi haqiqatini to'liq qabul qilolmagan ruhiy holatni namoyon etadi.

Bu bandlarning ruhiy va g'oyaviy mazmuni keying tahlil uchun poydevor bo'ladi. Quyida ijodkorning "Onangni sevgin deb o'rgatmoq g'alat" she'rini mazmunini va badiiy xususiyatlarini tahlil qilamiz:

Onangni sevgin, deb o'rgatmoq g'alat,

Xoin qalb shu so'zdan o'nnganarmidi?

Sut bilan kirmagan bo'lsa muhabbat,

Nomusni bilarmi, to'lg'anarmidi?

Jonidan jon olib, qirqib umrini,

Husnini o'g'irlab qochguchi bola

Koshki bir onaning bo'lsaykan sho'ri...

U hammaning sho'ri, hammaga balo.

Novvot ichidagi ipmidi ona,

Shimibshimib tuflab tashlasang loqayd.

Qalb emas, hattoki darz tushar toshga,

Uning ko'zlariga o'kinch qo'ngan payt.

Onangni sevgin, deb o'rgatmoq g'alat,

Andisha soladi tanamga titroq.

Odam tug'ilishining o'zi muhabbat

Bo'lsayu, yuqmasa bu unga biroq

Farzand atalarmi, derlarmi inson,

*Soyalar kirarmi hech qachon safga.
Sevgisiz vujudda ne qilsin vijdon,
Bular arzimaydi nasihat, gapga. [4;118]*

Mazkur she'rda ona muhabbati axloqiy o'git sifatida emas, balki insonga tug'ma, tabiiy qadriyat sifatida talqin qilinadi. Shoir "Onangni sevgin, deb o'rgatmoq g'alat" degan misra orqali muhabbatni o'rgatib bo'lmashligini, u inson tabiatidan kelib chiqishini ta'kidlaydi:

*Onangni sevgin, deb o'rgatmoq g'alat,
Xoin qalb shu so'zdan o'nnganarmidi?
Sut bilan kirmagan bo'lsa muhabbat,
Nomusni bilarmi, to'lg'anarmidi?*

Ijodkor chin muhabbat insonning qalbida paydo bo'lsagina, abadiy bo'lishini ta'kidlamoqda. Ya'ni, ona muhabbati va farzand sevgisi tabiiy, ichki hissiyotlarga yo'g'rilgan bo'lishi lozim.

*Jonidan jon olib, qirqib umrini,
Husnini o'g'irlab qochguchi bola
Koshki bir onaning bo'lsaykan sho'ri...
U hammaning sho'ri, hammaga balo.*

Shoiraning "jonidan jon olib", "husnini o'g'irlab" kabi obrazlari ma'naviy tubanlikning eng keskin ko'rinishlarini ifodalaydi. Bu obrazlar orqali muhabbat yetishmasligi jamiyatda zo'ravonlik, befarqlik va vayronkorlikni keltirib chiqarishi badiiy jihatdan asoslanadi. "U hammaning sho'ri, hammaga balo" misrasi orqali shaxsiy axloqsizlik umumijtimoiy fojia sifatida umumlashtiriladi.

*Novvot ichidagi ipmida ona,
Shimibshimib tuflab tashlasang loqayd.
Qalb emas, hattoki darz tushar toshga,
Uning ko'zlariga o'kinch qo'ngan payt.*

Shoira ushbu she'rda ham boshqa asarlari kabi tashbeh san'atidan mohirona foydalangan. Ona "novvot" – shirin, muqaddas ne'mat bilan qiyoslanadi, ammo ichidagi ip esa keraksiz va qadrsiz element sifatida tasvirlanadi. Shu tashbeh orqali inson loqaydligi va befarqligi ona mehrining qadrsizlanishiga olib keladi. Keyingi

misralarda shoira ona iztirobini shunchalik kuchli tasvirlaydiki, hatto tosh yurak ham darz ketadi. Onaning ko‘zidagi o‘kinch go‘yoki insoniylikning oxirgi sinovi sifatida beriladi.

*Onangni sevgin, deb o‘rgatmoq g‘alat,
Andisha soladi tanamga titroq.
Odam tug‘ilishining o‘zi muhabbat
Bo‘lsayu, yuqmasa bu unga biroq
Farzand atalarmi, derlarmi inson,
Soyalar kirarmi hech qachon safga.*

Shoira she‘rining ushbu bandlarida biologik hayot bilan ma‘naviy hayotni qarama-qarshi qo‘yadi: sevgisiz inson ham yashaydi, nafas oladi, lekin u hayotning “nuri” dan mahrum. Shu o‘rinda ijodkor o‘quvchi shaxsiga murojaat etmoqda: muhabbatsiz inson haqiqiy farzand yoki inson sifatida e‘tirof etiladimi? Albatta, yo‘q. “Soya” metaforasi shu kabi insonlarning jamiyatdagi mavjudligi faqat tashqi ko‘rinish ekanini bildiradi, mazmunan esa bo‘shligidan dalolat beradi.

*Sevgisiz vujudda ne qilsin vijdon,
Bular arzimaydi nasihat, gapga.*

Shoira ushbu bandlarida tarbiya va nasihatning ahamiyati faqat muhabbat mavjud bo‘lgandagina samara berishini ta‘kidlamoqda. Demak, she‘rning yakuniy baytlarida Saida Zununova ona siymosini muhabbat manbai, vijdon tayanchi va insoniylik mezoni sifatida yakuniy darajada ulug‘laydi. Ushbu baytlar butun she‘r mazmunini umumlashtirib, o‘quvchini ona muhabbatining beqiyos qadri haqida chuqur mushohadaga chorlaydi.

Tatqiqot so‘nggida quyidagi xulosaga kelindi: **Birinchidan**, Saida Zununova she‘riyatida ona siymosi oddiy lirik obraz darajasidan yuksalib, ko‘p qatlamli badiiy timsol sifatida shakllanadi. Shoiraning “Onajon” she‘rida ona obrazi ruhiy tayanch, sog‘inch va ichki iztirob manbai sifatida talqin qilinib, individual kechinmalar orqali umumiy ma‘naviy mazmun ifodalanadi; **Ikkinchidan**, “Onangni sevin, deb o‘rgatmoq g‘alat” she‘ri tahlili ona siymosining axloqiy-falsafiy mohiyatini ochib beradi. Ushbu asarda ona muhabbati inson tabiatiga tug‘ma singgan muqaddas tuyg‘u sifatida talqin qilinib, ona obrazi vijdon, mas‘uliyat va ijtimoiy axloq mezoni darajasiga

ko‘tariladi; **Uchinchidan**, qiyosiy tahlil natijalari Saida Zununova ijodida ona siymosi shaxsiy va ijtimoiy makonda uzviy bog‘liq holda yoritilganini ko‘rsatadi. Shoiraning poetik tafakkuri zamonaviy o‘zbek ayol lirikasining umumiy rivoj tendensiyalari bilan hamohang bo‘lib, ona mavzusi orqali insoniylik va ma’naviyat masalalarini chuqur badiiy umumlashtirishga erishilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Fan, 2007. –B.67.
2. Yo‘ldoshev Q. Badiiy tafakkur poetikasi. – Toshkent: Fan, 2019. –B. 112-114
3. Zununova.S. Bahorni qarshilab.She’rlar. – Toshkent: Adabiyot, 2021. –B.123.
4. Zununova.S. Bahorni qarshilab.She’rlar. – Toshkent: Adabiyot, 2021. –B.118.
5. Nusratov, B. (2023). HIKOYA OBRAZINING NAZARIY KRITERIYLARI. ZAMONAVIY TA'LIMDA FAN VA INNOVATSION TADQIQOTLAR, 1(2).
6. Inomjonovna, I. D. (2025). ISAJON SULTON ROMANIDA BILGA XOQON SIYMOSINING ZAMONAVIY TALQINI. PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI, 17(02), 744-746.
7. MADRAXIMOVA, I. POETIK TAFAKKURDA YETAKCHI G ‘OYA VA OBRAZLAR TIZIMI. FILOLOGIYA VA PEDAGOGIKA, 47.
8. Xo‘jamuratova, M., & Avazov, N. (2026, June). MAHMUDXO ‘JA BEHBUDIY IJODIDA AYOL OBRAZI. In GERMANY INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE (Vol. 1, No. 1, pp. 38-40).
9. KUCHKAROVICH, K. (2024). THE INFLUENCE OF EASTERN POETRY ON WESTERN POETRY AND THE CREATION OF ALIGHER DANTE. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES Учредители: The USA Journals, 5(11), 47-54.
10. TURAEVA, B., & KUCHIMOV, U. POETIC MODELS OF THE CONCEPT "LITERARY TIME".
11. Isoxonovich, X. M. (2025). AHMAD ZAKI VALIDIYNING TARIXDA PARADIGMAL YONDASHUVLARI. *Alfraganus Universiteti Konferensiya Materiallari*, 5(1), 883-890.
12. Stepanova, O., & Xujayev, M. (2024). THE PLACE OF ECOLOGY IN THE VALUE SYSTEM OF YOUTH IN TRADITIONAL SOCIETIES (BASED ON THE CASE STUDY: A SOCIOLOGICAL RESEARCH CARRIED OUT RECENTLY IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN). *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 1(1), 35-48.
13. Stepanova, O., & Xujayev, M. (2024). ARISTOTLE’S LOGICAL DOCTRINE TRANSFORMATION IN EASTERN PERIPATETICS WORKS. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 1(1), 4-13.
14. Xujaev, M. (2020). Mahmudkhujja Behbudiy as a leader of jadid reforms. *The Light of Islam*, 3, 39-47.